

OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA TALABALAR TADQIQOTCHILIK SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION BOSHQARUV MODELII

Xoshimov Sardorbek Nozimjon o‘g‘li

Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

ORCID iD: 0009-0004-5873-2340

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18942966>

Annotatsiya. Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarida talabalar tadqiqotchilik salohiyatini rivojlantirishning innovatsion boshqaruv modeli nazariy va amaliy jihatdan asoslab berilgan. Tadqiqot jarayonida talabalarni ilmiy faoliyatga jalb etish mexanizmlari tizimli yondashuv asosida tahlil qilinib, ilmiy motivatsiyani kuchaytirish, metodologik tayyorgarlikni oshirish va natijadorlikni monitoring qilishga qaratilgan boshqaruv modeli ishlab chiqildi. Model maqsadli, motivatsion, mazmuniy va tashkiliy komponentlarning o‘zaro integratsiyasiga asoslanadi hamda ilmiy faoliyat samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari Samarqand davlat pedagogika instituti, Buxoro davlat universiteti va Namangan davlat universitetlarida amaliyotga joriy etilib, talabalarning ilmiy faolligi, maqolalar soni va grant loyihalaridagi ishtiroki oshganligi kuzatildi. Shuningdek, tadqiqot natijalari asosida “Ilmiy tadqiqot metodologiyasi” hamda “Ta’limda innovatsiyalarni boshqarish” fanlari bo‘yicha darsliklar chop etildi. Olingan natijalar oliy ta’lim tizimida ilmiy boshqaruvni modernizatsiya qilish zaruratini tasdiqlaydi.

Kalit so‘zlar: tadqiqotchilik salohiyati, innovatsion boshqaruv, ilmiy kompetensiya, oliy ta’lim, metodologik tayyorgarlik, ilmiy motivatsiya, monitoring tizimi.

Annotation. This article substantiates an innovative management model for developing students’ research potential in higher education institutions. The study analyzes mechanisms for engaging students in research activities through a systematic approach and proposes a management model aimed at strengthening academic motivation, improving methodological preparedness, and ensuring effective monitoring of research outcomes. The model is based on the integration of goal-oriented, motivational, content, and organizational components to enhance research productivity. The results were implemented at Samarkand State Pedagogical Institute, Bukhara State University, and Namangan State University, demonstrating increased student participation in scientific publications and grant projects. Additionally, textbooks entitled “Research Methodology” and “Innovation Management in Education” were published based on the research findings. The results highlight the importance of modernizing research management in higher education.

Keywords: research potential, innovative management, scientific competence, higher education, methodological training, academic motivation, monitoring system.

Аннотация. В статье обоснована инновационная модель управления развитием исследовательского потенциала студентов в высших учебных заведениях. В ходе исследования проанализированы механизмы вовлечения студентов в научную деятельность на основе системного подхода и разработана модель управления, направленная на усиление академической мотивации, повышение методологической подготовки и обеспечение мониторинга результатов научной деятельности. Модель основана на интеграции целевого, мотивационного, содержательного и организационного компонентов. Результаты исследования внедрены в Самаркандском государственном педагогическом институте, Бухарском государственном университете и Наманганском государственном университете, что способствовало повышению научной активности студентов. По итогам исследования изданы учебники «Методология научных исследований» и «Управление инновациями в образовании». Полученные результаты подтверждают необходимость модернизации управления научной деятельностью в системе высшего образования.

Ключевые слова: исследовательский потенциал, инновационное управление, научная компетентность, высшее образование, методологическая подготовка, академическая мотивация, система мониторинга.

Talabalarni ilmiy faoliyatga yo‘naltirish jarayonlarini samarali tashkil etish va boshqarish masalasi zamonaviy oliy ta’lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Globallashuv sharoitida ilmiy-innovatsion rivojlanish inson kapitalining intellektual salohiyatiga bevosita bog‘liq bo‘lib, bu jarayonda talabalarni tadqiqotchilik faoliyatiga tizimli jalb etish alohida ahamiyat kasb etadi

“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral

[1]. Mazkur tadqiqot talabalarni ilmiy faoliyatga yo‘naltirish jarayonlarini boshqarishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan bo‘lib, unda nazariy-metodologik asoslar, boshqaruv modeli va amaliy samaradorlik mezonlari ishlab chiqilgan [2].

Tadqiqot doirasida talabalarni ilmiy faoliyatga yo‘naltirish jarayoni yaxlit pedagogik tizim sifatida talqin qilinib, uning maqsadli, motivatsion [3], mazmuniy, tashkiliy-boshqaruv hamda monitoring komponentlari o‘zaro integratsiyalashgan holda asoslab berildi. Taklif etilgan pedagogik mexanizm talabalarda ilmiy tafakkur, metodologik savodxonlik, mustaqil tadqiqot olib borish ko‘nikmalari va innovatsion yondashuvni shakllantirishga xizmat qiladi. Boshqaruv jarayonida raqamli monitoring vositalari, ilmiy mentorlik tizimi, grant va startap tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari hamda natijadorlik indikatorlari ishlab chiqildi [3].

Tadqiqot natijalari amaliyotga joriy etilib, Samarqand davlat pedagogika instituti, Buxoro davlat universiteti hamda Namangan davlat universitetida talabalarni ilmiy faoliyatga yo‘naltirish jarayonlarini boshqarishda qo‘llanildi. Amaliyot natijalari talabalarining ilmiy to‘garaklar, konferensiyalar va grant loyihalaridagi ishtiroki oshganini, ilmiy maqolalar va innovatsion tashabbuslar soni ko‘payganini ko‘rsatdi. Joriy etilgan mexanizm ilmiy faoliyat samaradorligini tizimli baholash hamda individual ilmiy rivojlanish trayektoriyasini belgilash imkonini berdi [4].

Dissertatsiya tadqiqoti natijalari asosida “Ilmiy tadqiqot metodologiyasi” hamda “Ta’limda innovatsiyalarni boshqarish” fanlari bo‘yicha talabalar uchun darsliklar chop etildi. Ushbu darsliklarda ilmiy izlanishning nazariy asoslari, tadqiqot metodlari, ilmiy loyihalarni boshqarish, innovatsion jarayonlarni tashkil etish va ta’limda boshqaruvning zamonaviy yondashuvlari yoritilgan bo‘lib, ular talabalar va yosh tadqiqotchilarning metodologik kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Olingan natijalar talabalarni ilmiy faoliyatga yo‘naltirish jarayonlarini boshqarishda pedagogik mexanizmlarni takomillashtirish oliy ta’lim muassasalarida ilmiy salohiyatni oshirish, innovatsion muhitni mustahkamlash va raqobatbardosh ilmiy kadrlar tayyorlashning muhim omili ekanini tasdiqlaydi. Mazkur yondashuv oliy ta’lim tizimida ilmiy boshqaruvni modernizatsiya qilish hamda talabalar tadqiqotchilik madaniyatini shakllantirishning samarali modeli sifatida tavsiya etiladi [1].

Mazkur tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan innovatsion boshqaruv modeli talabalarining ilmiy faoliyatga bosqichma-bosqich integratsiyasini nazarda tutadi. Modelning konseptual asosini kompetensiyaviy, tizimli va faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuvlar tashkil etadi. Ushbu yondashuvlar talabalarda nafaqat nazariy bilimlarni, balki mustaqil ilmiy izlanish olib borish, muammoni aniqlash, ilmiy faraz ilgari surish, metod tanlash va natijalarni tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ilmiy faoliyatni boshqarish jarayonida individual rivojlanish trayektoriyasini belgilash mexanizmi taklif etildi, bu esa har bir talabaning qiziqishi va salohiyatidan kelib chiqib ilmiy yo‘nalishini aniqlash imkonini beradi.

Tadqiqotning amaliy bosqichida talabalarining ilmiy faoliyatga tayyorgarlik darajasi diagnostik metodlar asosida o‘rganildi. Olingan natijalar asosida motivatsion rag‘batlantirish, ilmiy mentorlik va metodologik seminarlar tizimi takomillashtirildi. Ilmiy to‘garaklar faoliyatini qayta tashkil etish, fakultet miqyosida “Yosh tadqiqotchilar forumi”ni yo‘lga qo‘yish hamda talabalar ilmiy ishlari portfelini shakllantirish kabi mexanizmlar samarali natija berdi. Monitoring jarayonida talabalarining ilmiy maqolalari soni, konferensiyalardagi ishtiroki, grant loyihalaridagi faolligi hamda startap tashabbuslari ko‘rsatkichlari asosiy indikator sifatida belgilandi.

Tajriba-sinov ishlari natijalari shuni ko‘rsatdiki, tizimli boshqaruv asosida tashkil etilgan ilmiy faoliyat talabalarda tadqiqotchilik madaniyati va innovatsion fikrlashni sezilarli darajada rivojlantiradi. Xususan, ilmiy muhitni yaratish, akademik halollik tamoyillarini targ‘ib etish va ilmiy rahbarlikning samarali modelini joriy etish ilmiy natijadorlikni oshirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Shuningdek, talabalar o‘rtasida ilmiy hamkorlikni kuchaytirish, xalqaro ma’lumotlar bazalari bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish hamda ilmiy yozuv madaniyatini rivojlantirish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilandi.

Tadqiqot natijalarining muhim jihatlaridan biri shundaki, ishlab chiqilgan boshqaruv modeli oliy ta’lim muassasasining strategik rivojlanish dasturi bilan uyg‘unlashtirildi. Bu esa ilmiy faoliyatni boshqarishni alohida jarayon sifatida emas, balki ta’lim, innovatsiya va ijtimoiy hamkorlik bilan integratsiyalashgan tizim sifatida ko‘rish imkonini berdi. Natijada talabalar ilmiy faoliyatining barqaror o‘sish dinamikasi ta’minlandi hamda yosh ilmiy kadrlar zaxirasini shakllantirish uchun metodik asos yaratildi.

Xulosa sifatida ta’kidlash joizki, talabalar tadqiqotchilik salohiyatini rivojlantirishning innovatsion boshqaruv modeli oliy ta’lim tizimida ilmiy faoliyatni samarali tashkil etishning muhim omili hisoblanadi. Mazkur model ilmiy kompetensiyalarni shakllantirish, metodologik tayyorgarlikni

“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral

kuchaytirish va innovatsion muhitni barqaror rivojlantirishga xizmat qiladi hamda xalqaro ta’lim maydonida raqobatbardosh ilmiy kadrlar tayyorlash uchun mustahkam pedagogik asos yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. S.N.Xoshimov. Talabalar o‘rtasida ilmiy faoliyatni rivojlantirishning amaldagi pedagogik mexanizmlaridagi kamchiliklarni aniqlash. Inter education&Glbal study Ilmiy nazariy va metodik jurnali. 2024-yil 6-son;

2. S.N.Xoshimov. New stages of studying the views and problems of students in doing scientific research. International Journal Of History And Political Sciences. 2024-yil 7-son.

3. Zuxra K Ismailova, Dustnazar O Khimmataliev, Masuda K Khashimova, Mukhayo K Baybaeva, Bobirjon B Ergashev. Integrative approach to designing the content of secondary specialized vocational education. Opción, Año 36, Regular No.91 (2020): 25-41. ISSN 1012-1587/ISSNe: 2477-9385

4. Zuxra Ismailova, B. Ergashev. New information and communication technologies in education system. E3S Web of Conferences 135, 04077 (2019). <https://doi.org/10.1051/e3sconf/201913504077>.